- Chegaralar - Rastushevka (Feather) - tanlangan soxaning chegaralari qalinligini aniqlash.
- O' zgartirishlar - Izmenit (Modify) - tanlangan soxani xar hil xolatlar bilan o' zgartirish. Asosiy xolatlar:

Chegaralar - Ramka (Border) - Tanlangan soxa chegaralari bo' yicha siz ko' rsatgan xajmda tanlangan ramka soxasini yaratadi.

Chegara silliklashtirish - Sglajivanie (Smooth) - Tanlangan soxaning burchakli chegaralarini yumshoq va silliklashtiradi.

Kattalashtirish - Rastyanut (Expand) -

Tanlangan soxani siz ko' rsatgan masofani proporsional kattalashtiradi.

Kichkinalashtirish - Svernut (Contract) -

Tanlangan soxani siz ko' rsatgan masofani proporsional kichkinalashtiradi.

- Yonidagilarni qo' shish - Smejnye pikseli (Grow) - Yonida joylashgan o' xshash ranglarni ham tanlangan soxaga qo' shish.
- O' xshashlarni qo' shish - Sxojie pikseli (Similar) - ixtiyoriy joyda joylashgan o' xshash ranglar soxalarini tanlangan soxaga qo' shish.
- Tanlangan soxani o' zgartirish - Preobrazovat vydelenie (Transform Selection) - tanlangan soxani ixtiyoriy xolatda cho' zish va o' zgartirish.

Tanlangan soxaning shaklini o' zgartirish va u ustidan xar hil amallarni bajarish mumkin. Buning uchun bizga **Redaktirovar - Edit** menyu buyruqlari

bizga yordam beradi. Masalan tanlangan soxa nusxasini xotiraga olish va qirqib olish (Kopirovat-Copy, Вырезat-Cut), xotiradan chiqarish (Vstavit-Paste).

Sinov savollari:

1. Kompyuter grafikasi haqida nima bilasiz?
2. Adobe PhotoShop dasturning umumiy ko' rinishini tariflab bering?
3. Rasmning soxasini tanlash necha usuli bor va ularning farqini tariflab bering?
4. Tanlangan soxa ustidan qanaqa harakatlarni bajarish mumkin?
5. Rasmni kadrlash va bir necha qismlarga bo' lish haqida nima bilasiz?
6. Qalam, mo' yqalam va shtamp ish qurollari haqida nima bilasiz?
7. O' chirq' ich turlari haqida nima bilasiz?
8. Gradient va orqa rang berish ish qurollar farqini tushuntiring?
9. Ranglar o' zgartirish ish qurollar haqida nima bilasiz?
10. Tasvirga matn qo' shish ish qurollar bilan ishlash haqida nima bilasiz?
11. Shakllar yaratish ish qurollar haqida nima bilasiz?

3-MAVZU. Ikki o' Ichovli animasiya yaratuvchi va taxrirllovchi Adobe Flash grafik redaktori

Reja:

1. Ikki o' Ichovli kompyuter animasiyasi tushunchasi; Flash texnologiyaisga kirish;
- 2. Dasturning asosiy ish soxalari va tushunchalari.**
- 3. Macromedia Flash dasturining ish quollar soxasi.**
- 4. Macromedia Flash dasturida animasiya yaratish.**

4. Ayrim ob' yektlar bilan ishlash
5. Rasm chizish
6. Rang bilan ishlash
7. Matn bilan ishlash
8. Animasiya
9. Qatlamlar
10. Belgilarni barpo qilish va ularni taxrirlash
11. Interaktiv filmlar yaratish
12. Filmni nashr etish

2. Flash texnologiyaisga kirish

Flash texnologiyasi Shockwave Flash (SWF) formatidagi vektor grafikadan foydalanishga asoslangan. Albatta bu format eng kuchli formatlardan bo'lmay, SWF yaratuvchilariga grafikani imkoniyatlari, grafika bilan ishlovchi vositalar va natijani Web-saxifalarga qo'yish mexanizmlarini birlashtirish o'rtasida eng qulay yechimi topilgan. SWF ni qo'yish imkoniyatlardan yana biri bu uning moslashuvchanligidir, ya'ni bu format barcha platformalarda (MacOS sistemali Macintosh kompyuterlari yoki Windows sistemali IBM kompyuterlarida) ishlatilishi mumkin. SWF ning yana bir qulay imkoniyati uning yordamida yaratilgan tasvirlar nafaqat animasiyali bo'lishi, balki interaktiv elementlar va tovush bilan boyitilishi mumkin.

Moslashuvchanlik va interaktiv multimediya dasturlarini yaratish imkoniyati SWF formatining Web-dizaynerlar o'rtasidagi mashxurligini oshishiga imkon berdi. Shuning uchun bu format yaratilishi bilan bir vaqtda Macromedia firmasi (hozirda bu dasturlar **Adobe** firmasiga tegishli) tomonidan ikki asosiy tarmoq brauzerlari, Internet Explorer va Netscape Communicatorlar uchun komponentlar (Plug-In) yaratildi. Bu esa, o'z navbatida SWF ni Internetda yana ham keng tarqalishiga olib keldi. Natijada ushbu

brauzerlar yaratuvchilari SWF formatini o' z dasturlarini asosiy formatlar bazasiga kiritishdi. Bu yo' lni boshqa yirik dasturiy ta' minot yaratuvchilar (masalan, Adobe firmasi) ham tutishdi.

Yana bir bor aytish kerakki, agar Macromedia SWF formatini juda oddiy va qulay uskunalar bilan ta' minlamaganda bu format shunchalik ko' p muxlis orttirmagan bo' lardi. Xozirgi vaqtda ushbu uskunalarni bir qancha to' liq to' plamlari mavjud.

Ushbu uskunalarni bir turi (Director Shockwave Studio) multimediyali prezentasiyalar yaratish, boshqalari (FreeHand va Fireworks) grafik tasvirlar, uchinchilari esa (Authorware va CourseBuilder) interaktiv o' rgatuvchi kurslarni yaratish imkoniyatini beradi. Lekin Web-yaratuvchilar orasida eng ko' p ishlatiladigani bu Adobe Flash dir, chunki ushbu dastur xar qanday saytga mashxurlik olib keluvchi Web-saxifalar yaratish imkonini beradi. Balki shuning uchundir SWF formatini oddiy qilib Flash deb atalishi odatga kirib qolgan. Shunday qilib Flash-texnologiyalari quyidagilardan iborat:

- vektorli grafika;
- animasiyani bir qancha turlarida ishlash imkoniyati;

- interfeysni interaktiv elementlarini yaratish imkoniyati;
- sinxron ovoz qo' shish imkoniyati;
- HTML formati va boshqa Internetda ishlatiluvchi barcha formatlarga eksportni ta' minlash;
- platformali mustaqillik
- Flash-filmlarni avtonom rejimda ham, Web-brauzer yordamida ham ko' rishning imkoniyati mavjud.

Vizual yaratish uskunalari mavjudligi Flash-film yaratuvchilarini ko' plab murakkab operasiyalardan xalos etadi, shuningdek Flash-texnologiyalarning texnik aspektlarini o' rganish zarur bo' lmaydi

Flash - bugungi kunda bu texnologiyani qo' llanilishining asosiy yo' nalishi bu chiroyli va dinamik Web-saxifalar yaratishdir.

Flash-filmni brauzerda namoyish etilishini ikki usuli mavjud:

- uni SWF formatida saqlash, so' ng sichqoncha yordamida fayl belgisini shu fayl saqlanadigan katalogdan brauzer oynasiga o' tkazish .
- Flash-filmni HTML formatiga eksport qilish, so' ng oddiy usul bilan brauzerda o' chish.

Flash-filmni HTML-kodga o' tkazish mexanizmi ActiveX elementlarini ishlatish yoki Plug-in komponentlarini qo' shishga o' xshashdir. Internet Explorer brauzeri uchun HTML-kodiga o' tkazish <OBJECT> tegi yordamida Netscape brauzeri uchun esa <EMBED> tegi yordamida amalga oshiriladi. Ushbu ikki saqlash ham Flash-filmni tushinishi uchun, Flash o' z filmlarini HTML sahifaga konvertasiya qilganda bu ikki tegni qo' shadi. Shu bilan birga dasturchi teglarning ko' rsatkichlaridan foydalanishi yoki o' zining ko' rsatkichlarini berishi mumkin.

Flash-filmlarni Web-saxifa elementlari sifatida ishlatish turli tumandir. Bulardan ayrimlari quyida keltirilgan:

- saxifani estetik ko' rinishini oshirish uchun mo' ljallangan «oddiy» animasiya;
- foydalanuvchi harakati (sichqonchani siljitish, tugmachani bosish)ga boq'liq bo' lgan animasiyalashgan tugma, bunday tugma giperishorat sifatida ishlatilishi mumkin yoki biror-bir vazifani bajarish mumkin (masalan, brauzerni yangi oynasini ochish, tashqi faylni yo' qlash va b.);
- Web-saxifa foydalanuvchilaridan biror-bir ma' lumotni qabul qilishga mo' ljallangan forma ko' rinishida;

Zarurat tuq'alganda Flash ni oddiy, «statik» faqat giperishoratlar ko' rinishidagi interaktiv elementlarni an' anaviy ko' rinishidagi HTML-sahifalar yaratish uchun ham ishlatish mumkin. Bunday variant Flash ni ham matn bilan ham aloxida tasvirlar bilan ishlash imkoniyatidan kelib chiqadi.

2. Dasturning asosiy ish soxalari va tushunchalari.

Macromedia (hozirda Adobe) Flash dasturi yordamida ham animasiya va taqdimot fayllarni yaratishimiz mumkin. Ammo Power Point ga qaraganda Macromedia Flash dasturda yaratilgan animasiya fayllari to' liq siz tomoningizdan yaratiladi va animasiyalashtiriladi. Shu bilan birgalikda bu dasturda aktiv elementlar bilan ishlash va dasturlash imkoniyatlari mavjud. Asosan Macromedia Flash dasturida kichik animasiya fayllari (kliplar), Internet saxifalar, elektron qo' llanmalar va ... Flash dasturda yaratilgan fayllar o' zining original, ishlash soddaligi , yaratilish murakkabligi, tezkorligi, multimediya jixozlanganligi va hajm bo' yicha kichikligi bilan ko' zga tashlanishadi.

Dasturni ishga tushirish uchun Windows ning **PUSK** tugmasining **PROGRAMM** bo'limining **Macromedia** gruruxi ichidagi **Macromedia Flash** buyrug'ini tanlaymiz. Natijada ekranda quyidagi dastur oynasi xosil qilinadi.

Flash dasturida ishlash uchun biz bir nechta yangi tushunchalar bilan tanishimiz zarur. Bular: **Flash belgisi, grafik tasvir (simvol), animasion klip, aktiv tugma, ssena, kadr, boshqaruv kadr, vaqt-chizgichi, va qatlam.**

Vaqt-chizgichi (TimeLine - Vremennaya shkala) - Flash dasturida animasiya harakatlarni yaratishida asosiy ish quroli. Ushbu soxada qatlam va kadrlarni ko'rishimiz va ular ustidan xarhil amallarni bajarishimiz mumkin. Vaqt-chizgich orqali qatlamlarni joylashuvi va turi, kadrlar turi (boshqaruv va avtomatik yaratilgan kadrlar) va ulardagi action dasturlash skriptlar mavjudligini ko'rishimiz va sozlashimiz mumkin.

Ushbu soxaning chap tomonda qatlamlar soxasi, o'ng tomonda esa shu qatlamlardagi kadrlar soxalari joylashgan.

Vaqt-chizgichning chap (qatlamlar) tomoni



- ustuni qatlam ko' rinishi yoki ko' rinmasligini,



- ustuni qatlamni o' zgartirish mumkinligi yoki mumkin emasligi va



- ustuni qatlam elementlari to' liq yoki faqat chegaralari ko' rinishini o' zgartirishga yordam beradi.



- tugmasi yangi qatlam yaratish,



- tugmasi harakat traektoriyasi qatlamni yaratish,



- tugmasi qatlamlar uchun papka yaratish,



- tugmasi esa tanlangan qatlamni o' chirish amallarni bajaradi.

Vaqt-chizgichning o' ng (kadrlar) tomoni

Vaqt-chizgichnining o' ng tomonning pastki qismidagi joylashgan



- soxasi bosh kadrda o' tish, qo' shni kadrlarni yoki ular chegaralarini ko' rsatish hamda bir nechta kadrlarni bir paytda taxrirlash tugmalari,



- soxasi esa nechanchi kadr tanlangan, kadrlar tezligi va nechanchi sekundda joylanishimizni kursatuvchi tugmalari.



Katlam (Layer - Sloy) - xar bir grafik muxarrirlaridek Flash dasturida ham qatlamlardan foydalanamiz. Qaysi qatlam yuqorida joylashgan bo' lsa shu qatlam ob' ektlar boshqalar ustida ko' rsatiladi. Katlamni ko' rinmas yoki o' zgartiruvchan emas xolatga

o' tkazish mumkin. Katlamlar oddiy, harakat traektoriya qatlami yoki maska (paydo bo' lish) qatlam ko' rinishida bo' lishi mumkin. Bir vaqtdagi bir nechta xar hil harakatlar uchun xar hil qatlamlar kerak.



Kadr (Frames - Kadr) - Flash va ko' pkina animasion muxarrirlar hamda video montaj dasturlar asosida kadrlar ketma ketligi joylashgan. Kadrni siz o' zingiz chizib yaratishingiz yoki dastur uni o' zi avtomatik yaratishi mumkin. Kadrlar ichida boshqaruv kadr (keyframes - klyuchevoy kadr) tushunchasi mavjud bo' lib, u harakat traektoriyasining nuqtalarini belgilaydi. Avtomatik yaratilgan kadrlar esa ikki hil bo' ladi: shakllar geometriyasini o' zgarishi (shape tweening) yoki boshqaruv kadrlar o' zgarishi (motion tweening) asosida yaratilgan kadrlar .

Kadrlar ustidan bajariladigan asosiy amallar

F7 yoki Vstavka menyusida Vstavit pustoy klyuchevoy kadr (Insert blank keyframe) - aktiv qatlamda yangi bo' sh boshqaruv kadr yaratish.
F6 yoki Vstavka menyusida Klyuchevoy kadr (Insert keyframe) - aktiv qatlamda keyingi boshqaruv kadrini yaratish
Shift+F6 yoki Vstavka menyusida Ochistit klyuchevoy kadr (Clear keyframe) - aktiv qatlamda tanlangan boshqaruv kadrini tozalash
F5 yoki Vstavka

menyusida Kadr (Insert frame) - aktiv qatlamda bo' sh kadrini yaratish Shift+F5 yoki Vstavka menyusida Udalit kadr (Remove frames) - aktiv qatlamda tanlangan kadrini tozalash




Belgilar (Symbol - Simvol) - Flash dasturning asosiy elementlaridan biri. U oddiy grafik yoki bir nechta qatlamdan iborat murakab grafik tasvir (graphic), animasiyalashgan klip (movie clip) yoki aktiv tugma (button) ko' rinishida bo' lishi mumkin. Har bitta belgi o' z ichiga bir nechta boshqa belgilarni olishi mumkin bo' lganligi sababli Flash dasturida ishlash juda qulay. Yangi belgi yaratish uchun Ctrl+F8 yoki Vstavka menyusida Новый simvol (New symbol) buyrig' ini tanlaymiz. Natijada yangi belgining yaratish muloqot oynasi chiqadi, ushbu oynada biz belgi turini (grafik tasvir - **graphic**, yoki aktiv tugma - **button**) tanlaymiz va OK tugmasini bosamiz. Yangi belgini boshqa yo' l bilan ham yaratish mumkin. Agar biror bir tasvir qismini sichqoncha bilan tanlab F8 yoki Vstavka menyusida Preobrazovat v simvol (Convert to Symbol)

buyrig' ini tanlasangiz, u xolda Flash shu tasvir asosida siz tanlagan turiga mansub yangi belgi yaratadi

Belgining turlari

Grafik tasvir (graphic) - bitta kadrda va bitta yoki bir nechta qatlamlardan iborat belgi. Aktiv tugma (button) – to'rtta kadrda (Up, Over, Down, Hit) va bitta yoki bir nechta qatlamlardan iborat belgi. **Up** - tugma oddiy ko'rinishi, **Over** - sichqoncha kursori tugmaga ko'rsatib turgan ko'rinishi, **Down** - sichqoncha kursori tugmaga ko'rsatib bosilib tugran ko'rinishi, **Hit** - tugma aktivlashish soxaning ko'rinishi. Animasiyalashgan klip (movie clip) - cheklanmagan kadrda va qatlamlardan iborat belgi. Ushbu belgi o'z ichiga bir nechta boshqa belgilarni (grafik tasvirlar, aktiv tugmalar va boshqa animasion kliplarni) olishi mumkin.



Belgilar kutubxonasi (Biblioteka - Library) - xar hil turdagi belgilar bilan ishlash uchun Flash ning maxsus oynasi. Uni ekranga chiqarish uchun Ctrl+L yoki F11 yoki Okno menyusining Biblioteka (Window Library) buyrug' ini tanlashimiz kerak. Ushbu oyna orqali biz barcha belgilarni ko' rishimiz, ularni taxrirlashimiz, yangi yaratishimiz va o' chirishimiz, hamda ularni kadrlar qo' shishimiz mumkin.

Animasiya (Animasiya - Animation) - Flash dasturning asosiy harakatlari. Animasiya 2 hil bo' ladi: kadrli (pokadrovoe sozdanie) va avtomatik(avtomaticheskoe sozdanie promejutochnyx kadrov). Kadrli animasiya faqat boshqaruv kadrlardan iborat bo' ladi. Avtomatik animasiya (tweening) boshqaruv hamda avtomatik ravishda yaratilgan oddiy

kadrlardan iborat bo' ladi. Flash dasturda ikki hil avtomatik animasiya turi mavjud: shakllar geometriyasini o' zgarishi (shape tweening) yoki boshqaruv kadrlar o' zgarishi (motion tweening) asosidagi animasiya. Xar hil animasiya turlarini yaratish va ularni taxrirlash asoslari bilan biz keyingi mavzularda tanishamiz.

3. Macromedia Flash dasturining ish quollar soxasi.

Dasturning yana bir asosiy ish soxalaridan biri bu - ish quollar tugmalar soxasi. U yordamida biz xar hil grafik shakllarni yaratishimiz va ular ustidan xar hil amallarni bajarishimiz mumkin bo' ladi. Ushbu soxada ish qurol tugmalari pastida  chiziqlar rangini va  orqa rangini o' zgartirish soxalari, hamda tanlangan ish qurol xususiyatlarini sozlash soxasi joylashgan. Xar bitta ish quroli o' zining imkoniyatlariga, xolatlariga va xususiyatlariga ega. Masalan rangni shakl ichiga berishda: to' liq cheklangan shakl, to' liq cheklanmagan shakl va butunlay cheklanmagan shakl xolatida ishlash mumkin. Ushbu qo' shimcha xolatlar va xususiyatlar tugma ma' nosidan keyin qavslarda ko' rsatilgan.



Ish qurollar (yordamchi tugmalar) ma' nosi

 - V - Shakl yoki soxani tanlash va uni kadr bo' ylab harakatlantirish

 - A - Kadrda tanlangan shakl chegaralarini o' zgartirish

 - N- Kadrda chiziqli shakl chizish

 - L - Kadrda lasso yordamida ixtiyoriy soxa tanlash (sexrli tayoqcha va ko' pburchak lasso xolatlari ham mavjud)

 - P - Kadrda ko' pburchak turdagi shakl chizish

 - T - Kadrda matn elementini qo' shish

 - O - Kadrda aylana turdagi shakl chizish

 - R - Kadrda to' rtburchak turdagi shakl chizish (brchaklari aylanasiimon xolati ham mavjud)

 - Y - Kadrda qalam yordamida shakl chizish (chizilgan shakl chegaralar turini o' zgartirish xolati ham mavjud)

 - B - Kadrda mo' yqalam yordamida shakl chizish (chizish turi, mo' yqalam qalinligi va shaklini o' zgartirish xolatlari ham mavjud)

 - Q - Kadrda tanlangan shaklni cho' zish (shaklni aylantirish, cho' zish, qiyshaytirish, chegaralarini o' zgartirish xolatlari ham mavjud)

 - F - Kadrda tanlangan shakl ranglarining yo' nalistini o' zgartirish

 - S - Kadrda tanlangan shakl chegaralar rangini o' zgartirish

 - K - Kadrda tanlangan shakl orqa rangini o' zgartirish (to' liq cheklangan shakl, to' liq

cheklanmagan shakl va butunlay cheklanmagan shakl orqa rangini o' zgartirish xolatlari ham mavjud)



- I - Kadrda ishlatilgan rangni qayta tanlash



- E - Kadrda ixtiyoriy soxani o' chirq' ich yordamida o' chirish (chegara, orqa rang va tanlangan rang, o' chirq' ich qalinligi va sexrli o' chirq' ich xolatlari ham mavjud)





- H - Kadr soxasini siljitish




- Z - Kadrni mashtabini o' zgartirish (kattalashtirish yoki kichkinalashtirish xolatlari ham mavjud)



chiziqlar rangini va  orqa rangini o' zgartirish soxalarini tanlaganimizda quyidagi muloqot soxasi xosil qilinidi.




U yordamida yoki rang kodi orqali, yoki 256 rangdan tanlab, yoki spektrdan rangni tanlab olishimiz, hamda rang berish yo' lini tanlashimiz mumkin. Rangni boshqa yo' l bilan ham o' zgartirish mumkin. Buning uchun Okno menyusidagi Svetovoy nabor (Ctrl+F9) va Svetovoy miksher (Shift+F9) buyruqlarni ishga tushiramiz.



Oynaning o'ng tomonida kadrni ko'rish masshtabini o'zgartirish soxasi joylashgan. U yordamida to'liq kadrni, to'liq ish soxani, 25%, 50%, 100%, 200%, 400% va 800% ko'rinishiga o'tkazish mumkin.

Xar bir grafik shakl va belgi o'zining xususiyatlariga ega. Ushbu xususiyatlarni ekranga chiqarish va ularni o'zgartirish uchun chap tugmasi bilan tanlab Svoystva (Properties) yoki Ctrl+F3 yoki Okno menyusing shu nomli buyrug'ini tanlamiz. Natijada shu nomli muloqot oynasi ekranda xosil qilinadi va u yordamida biz xar bir grafik shakl va belgining xususiyatlarini o'zgartirishimiz mumkin bo'ladi.



Masalan, ish soxaning bo'sh joyiga bosib shu oynada xosil qilingan elementlar orqali ish soxaning hajmini, orqa rangini va kadrlar almashish tezligini o'zgartirishimiz mumkin. Agar boshqaruv kadr tanlangan bo'lsa, u xolda animasiya turi, uning xususiyatlari, tovush bilan jixozlanish va xokazo xolatlarini o'zgartirishimiz mumkin. Agar matn elementi tanlangan bo'lsa, u xolda matn xarflar shakli, kattaligi, intervallari, rangi, abzasda joylanishi va xokazo

shriftga tegishli xolatlarni o' zgartirish imkoniyati paydo bo' ladi. Agar esa grafik shakl tanlangan bo' lsa u xolda uning kadrda joylanish koordinatalari, kattaligi, chegara chiziqlarining qalinligi va rangi, ular turi va shaklning orqa (ichki) rangini o' zgartirish imkoniyati paydo bo' ladi.


4. Macromedia Flash dasturida animasiya yaratish.

Flash dasturida animasiya ikki hil bo' ladi: kadrli (pokadrovoye sozdanie) va avtomatik(avtomaticheskoye sozdanie promejutochnykh kadrov). Avtomatik animasiya shakllar geometriyasini o' zgarishi (shape tweening) yoki boshqaruv kadrlar o' zgarishi (motion tweening) asosidagi animasiya turlarga bulinadi.

Boshqaruv kadrlar o' zgarishi (motion tweening) asosidagi yaratilgan animasiya.

Shu turdagi animasiyani yaratish uchun biz bitta boshqaruv kadrni yaratamiz va o' nga belgi qo' shamiz. Masalan boshqaruv kadrda aylana chiziladi va u **grafik tasvir** belgi turiga F8 yoki Vstavka menyusida Preobrazovat v simvol (Convert to Symbol) buyrigi yordamida utkaziladi. Yoki Ctrl+F8 yoki Vstavka menyusida Noviy simvol (New symbol) buyrig' ini

tanlab yangi belgi yaratamiz va belgilar kutubxonasi yordamida uni boshqaruv kadrqa qo' shamiz.



Endi belgi joylashgan boshqaruv kadrni sichqonchani o'ng tomondagi tugma yordamida tanlab Creat motion tweening yoki Vstavit menyusining shu nomli buyrug'ini tanlamiz. Shu harakatlar natijasida boshqaruv kadr rangi ko'k rangga o'zgaradi. Endi sichqoncha bilan yangi kadrni tanlaymiz, (masalan 25-chi kadrni) va F6 yoki Vstavka menyusida Klyuchevoy kadr (Insert keyframe) aktiv qatlamda keyingi boshqaruv kadrini yaratish buyrug'ini tanlaymiz. Natijada 25-chi kadrda ko'k rangli boshqaruv kadr xosil qilinadi va shu kadr gacha birinchi boshqaruv kadr dan strelka xosil qilinadi. Birinchi boshqarish kadr dan ikkinchi boshqarish kadr gacha kadrlar ko'k rangda avtomatik xosil

qilinadi. Oxirgi harakatimiz - bu ikkinchi boshqarish kadrdagi belgini o' zgartirish (cho' zish, aylantirish, kattalashtirish, kichkinalashtirish yoki kadrdagi joylanishini o' zgartirish). Endi klaviaturadagi Enter tugmasini bosamiz va biz yaratgan animasiyani ko' rishimiz mumkin.

Shakllar geometriyasini o' zgarishi (shape tweening) asosidagi yaratilgan animasiya.

Shu turdagi animasiyani yaratish uchun biz boshqaruv kadrlar o' zgarishi (motion tweening) asosidagi yaratilgan animasiya xosil qilamiz. Faqat endi oxirida ikkinchi qatlamdagi belgini butunlay o' chirib uning o' rniga kvadrat chizamiz. Shu harakatimizdan keyin kadrlar rangi normal rangga qaytadi. Keyin birinchi va ikkinchi boshqaruv kadrlardagi **grafik tasvir** belgini Ctrl+B yoki Izmenit menyusidagi Razdelit otdelno (Breack appartack) buyrug' i yordamida aloxida shakllarga bo' lib chiqamiz.

Endi avval birinchi boshqaruv sichqoncha chap tugmasi bilan tanlab Svoystva (Proprties) yoki Ctrl+F3 yoki Okno menyusining shu nomli buyrug' ini tanlaymiz. Natijada muloqot oynasi xosil qilinidi va unda Tweening soxasida Motions urniga Shape xolatini tanlaymiz. Shu natijasida boshqaruv kadr rangi yashil

rangga o' zgaradi. Endi ikinchi boshqaru kadrni ham sichqoncha bilan tanlab animasiya turini Motions dan Shape ga o' zgartiramiz va oxirida klaviaturadagi Enter tugmasini bosamiz va biz yaratgan animasiyani ko' rishimiz mumkin.

Kurishimiz mumkin ikkala animasiyalarda ham ikkita boshqarish kadrlar o' rtasidagi masofa kadrlarni kompyuter o' zi avtomatik yaratgan va animasiya to' g' ri chiziq bo' yicha harakatlanaypti. Ammo agar bizga harakat traektoriya bo' yicha bajarilishi kerak bo' lsa, u xolda nima qilish kerak? Bunday animasiyalarni xosil qilish uchun bizning qatlamimiz ustida maxsus  **harakat traektoriya qatlamini** yaratish kerak bo' ladi. Va shu qatlamda  qalam bilan qiyshiq traektoriya chizig' ini chizamiz. Natijani ko' rish uchun klaviaturadagi Enter tugmasini bosamiz.

Shu bilan birga avtomatik animasiyalarda foydalanish mumkin bo' lgan yana bir effekt mavjud - bu maska qatlami. Maska qatlamini uchun asosiy qatlam ustida yangi bo' sh qatlam yaratamiz. Shu qatlamni sichqonchani chap tugmasi bilan bosib **Maska - Mask** buyrug' ini tanlaymiz. Natijada qatlam ko' k rangga o' zgaradi va ikkala qatlamlar  o' zgarishlardan himoyalanaadi. Maska qatlamdan shu

himoyani o' chirib, boshqaruv kadrda bir nechta to' rtburchaklar chizamiz. Keyin yana maska qatlamning himoyasini yoqib klaviaturadagi Enter tugmasini bosamiz va natijani ko' ramiz.

Maska qatlamdagi boshqaruv kadrni motion tweening animasiyalashtirilsa harakatlanish effekti yanada chiroyli bo' ladi.

Sinov savollari:

1. Web saxifalarni yaratuvchi qanday dasturiy vositalarni bilasiz?
2. Adobe Flash texnologiyasi nima?
3. Muloqot strukturasi izoxlab bering.
4. Flash qanday tip dasturlarga kiradi ?
5. Flash dasturidan nima maqsadlarda foydalanish mumkin?
6. Flash saytlari oddiy saytlardan nimasi bilan farqlanadi ?
7. Dasturda grafiklarni chizish uchun qaysi panel uskunalaridan foydalaniladi?
8. Line Tool, Oval Tool, Rectangle Tool, Pencil Tool, Brush Tool uskunalarining vazifalarini aytib bering?

9. Grafiklar chizishda rang tanlashning qanday imkoniyatlari bor?
10. Fayllarni import qilish nima?
11. Fayllarni eksport qilish nima?
12. Flash da matnlar bilan ishlashning qanday imkoniyatlari mavjud?
13. Filmga tovush biriktirish uchun dastlab qaysi buyruqdan foydalaniladi?

4-MAVZU. Kompyuter taqdimotlari. Microsoft Power Point dasturi

Reja:

1. Umumiy tushunchalar.
2. Microsoft Power Point tezkor tugmalari
3. Taqdimotni sozlash
4. Microsoft Power Point dasturning menyusi

1. Umumiy tushunchalar. Microsoft Power Point dasturi.

Kompyuter grafikasi tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, kompyuter grafikasi deganda avvalo biz turli hil rasmlarni va chizmalarni, animasiyalarni, xar hil efektlarni, ovozlarni o'zida mujassam etgan. Shuni o'z kuv jarayonida, konferensiyalarda va seminarlarni o'ztkazishda zamonaviy texnikani qo'llash odiy bo'lib koldi.

Namoyish etish uchun 35 millimetrlik slayd plyonkasi va tashqi plyonkalar ishlatilish odat tusiga kirdi. Keyingi vaqtlarda rangli suyuq kristalli panelllar tarqalgan bo'lib, bevosita kompyuter ekraniga ulanadi. Bunday prezentasiyalarni tayyorlash ko'pmexnat talab qilinadigan jarayonlardir. Shuning uchun

dastur taminoti bozorida qator paketlar paydo bo'ldi, ular prezentasiyalarni barpo etish va o'tkazish ishlarini soddalashtirishga yordam beradi. Bunday dastur maxsuloti vakillaridan biri bu **Microsoft Power Point** dasturi dir.

Microsoft Power Point dasturi Windows kobigi ostida yaratilgan bo'lib, ushbu dastur prezentasiyalar (taqdimot qilish, ya'ni tanishtirish) bilan ishlash uchun eng qulay bo'lgan dasturiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu dastur orqali barcha ko'rgazmali qurollarni yaratish va ba'zi joylarda esa ma'lumotlar bazasi sifatida ham qo'llash mumkin. Ayrim xollarda bu dasturlarni multimedia vositalaridan boshqarish va qo'llab, namoyish etuvchi qurilmalarga yuborish vazifalarini ham bajarish mumkin. Dasturda ishlash uchun biz yangi bo'lgan asosiy tushunchalar bilan tanishaylik.

Prezentasiya - bu slaydlar va maxsus effektlar to'plami bo'lib, ularni ekranda ko'rsatish, tarqatiladigan material, ma'ruza rejasi va konspekt shaklida bitta faylda saqlanadi.

Slayd - bu prezentasiyani alohida kadri bo'lib, matnni, sarlavhalarini grafik va diagrammalarni o'z ichiga oladi. Power point vositalari bilan barpo etilgan slaydlarni oq-qora yoki rangli printerda chop etish yoki


maxsus agentligi yordamida 35 millimetrli slaydlarni fotoplenkalarda tayyorlash mumkin.

Tarkatiladigan material - qulay shaklda bosib chiqarilgan va tanishish uchun mo'ljallangan materiallar. Ular bir betda ikki, to'rt yoki olti slaydlar chop etilgan bo'ladi.

Maruza konspekti - Power Point da prezentasiya ustida ishlash jarayonida yaratilgan maruza konspekti. Chop etish vaqtida maruza konspektining har bir betida slayd va matnning mazmunini tushuntiruvchi kichiklashtirilgan tasvir chiqarilgan bo'ladi.


Prezentasiya strukturasi (to'zilihi) - faqatgina slayd sarlavhasini, shuningdek grafik tasvirsiz asosiy matnni va maxsus shakllantirishi ichiga olgan xujjat.

Power Point dasturini ishga tushirish. Bu dasturni ishga tushirish uchun Windows ning "Pusk" menyusida ichidagi "Программы" bo'limidan "Microsoft Power Point" buyruq'ini tanlaymiz. Shundan keyin ekranda quyidagi oyna xosil qilinadi.




Ushbu oyna quyidagi bo' limlardan iborat: **Master avtosoderjaniya, Shablon oformleniya, Pustuyu prezentasiyu, Otkryt prezentasiyu** .


Agar siz birinchi - **Master avtosoderjaniya** bo' limini tanlasangiz u holda kompyuter sizga yangi taqdimot turini, tarkibini va tashqi ko' rinishini (rangli jixozlanishini) tanlab, uni yaratishga qadam va qadam yordam beradi.



Agar siz ikkinchi - **Shablon oformleniya** bo' limini tanlasangiz u xolda kompyuter sizga faqat tashqi ko' rinishini (rangli jixozlanishini) tanlab, uni yaratishga yordam beradi.




Agar siz uchinchi - **Pustuyu prezentasiyu** bo' limini tanlasangiz u xolda kompyuter sizga yangi bo' sh taqdimotni yaratishga yordam beradi.



Va nixoyat agar siz to' rtinchi - **Otkryt prezentasiyu** bo' limini tanlasangiz u xolda kompyuter sizga ilgari yaratilgan taqdimotni pastdagi ro' yhatdan tanlab qayta ochishga yordam beradi.

Taqdimotni taxrirlaganimizda va u bilan ishlashni boshlaganimizda dastur oynasi quyidagi ko' rinishida bo' ladi.



U Fayl, Pravka, Vid, Vstavka, Format, Servis, Pokaz slaydov, Okno, Pomosh' menuyu bo' limlaridan, Standartnye, Formatirovanie va boshqa yordamchi tugmalar (uskunalar) satrlaridan, ish soxasidan va ma' lumotlar satridan iborat. Yordamchi tugmalarning ko' p qismi bizga boshqa Microsoft Office dasturlari (**Word, Excel va Access**)orqali tanish, shuning uchun faqat Power Point ga mansub tugmalarga aloxida to' xtaymiz.

Power Pointga mansub yordamchi tugmalar

1.  - Taqdimotga yangi bo' sh slayd qo' shish. Ushbu tugma tanlangandan keyin ekranda oyna orqali yangi slayd turini tanlashni bizga taklif etadi.

2.  - Taqdimot slaydlarini shakllantirishda Power Point ning tashqi ko' rinishini (rangli jixozlanishini) o' zgartirish yordamchisini ishga tushirish.

3.  - Taqdimotni struktura rejimida ko' rsatganda, slaydlar sarlavxalari va barcha asosiy matinnlarining ko' rsatish yoki ko' rsatmasligini ta' minlaydi.

4.  - Taqdimotni struktura rejimida ko' rsatganda, slaydlar sarlavxalari va barcha matnlarining jixozlanishini (tashqi ko' rinishini) ko' rsatish yoki ko' rsatmasligini ta' minlaydi.

5.  - Tanlangan matn ob' ektning xarflarini soyali (s tenyu) tashqi ko' rinishiga o' tkazish.

6.  - Tanlangan matn ob' ektning xarflarini bitta qadamga kattalashtirish.

7.  - Tanlangan matn ob' ektning xarflarini bitta qadamga kamaytirish.

8.  - Slayd ob' eklarining paydo bo' lishini aniqlaydigan animasiya effektlarini sozlash muloqot oynasini ekranga chiqarish.

9.  - Slayd ob' ektlarining o' ng tomondan kattalashib, avtomobil ovozi bilan paydo bo' lishi animasiya effekti.

10.  - Slayd ob' ektlarining chap tomondan kattalashib, xushtak ovozi bilan paydo bo' lishi animasiya effekti.

11.  - Slayd ob' ektlarining o' rtadan, kattalashib fotokamera ovozi bilan paydo bo' lishi animasiya effekti.

12.  - Slayd ob' ektlarining o' rtadan, yorug' lantirib paydo bo' lishi animasiya effekti.

13.  - Slayd ob' ektlarining o' ng burchakdan xarfma-xarf paydo bo' lishi animasiya effekti.

14.  - Slayd ob' ektlarining xarfma-xarf, yozuv mashinasi ovozi bilan paydo bo' lishi animasiya effekti.

15.  - Slayd ob' ektlarining o' ng tomondan qarama-qarshi paydo bo' lishi animasiya effekti.

16.  - Slayd ob' ektlarining yuqoridan so' zma-so' z paydo bo' lishi animasiya effekti.

2. Microsoft Power Point tezkor tugmalari

Kompyuterda ishlash vaqtimizda xar hil vaziyatlar bo' lishi mumkin. Shulardan eng ko' p uchraydigani bu sichqonchaning nosozligi. Foydalanuvchilarning katta qismi esa ush bu qurilma orqali asosiy amallarni bajarishadi, va shu sababli shunaqa vaziyatlarda ish to' xtab yoki sekinlab qoladi.

Shunaqa vaziyatni yechish uchun bizga tezkor tugmalar yordam berishadi. Tezkor tugmalar yordamida biz biror bir sichqoncha bilan bajariladigan amalni klaviatura yordamida tezkor bajara olamiz. Shuning uchun ush bu tugmalarni bilish foydalanuvchilarga talab deb qo' yiladi. Quyidagi ro' yhatda Microsoft Power point dasturining asosiy tezkor tugmalar ko' rsatilgan:

1. **CTRL+N** - Yangi taqdimot faylini yaratish.
2. **CTRL+M** - Taqdimotga yangi bo' sh slayd qo' shish.
3. **CTRL+D** - Taqdimotga aktiv slayd nusxasini qo' shish.
4. **CTRL+ENTER** - Slaydning keyingi elementini taxrirlash
5. **CTRL+O** - Ilgari yaratilgan taqdimot faylini qayta ochish
6. **CTRL+W** - Ekranda ochiq bo' lgan taqdimot faylni berkitish

7. **CTRL+P** - Taqdimotni qog' ozda bosmaga chiqarish
8. **CTRL+S** - Taqdimot faylni saqlash.
9. **F5** - Taqdimot namoyishini ishga tushirish
10. **ALT+F4** - Microsoft PowerPoint dasturidan chiqib ketish
11. **CTRL+F** - Matn qismini qidirish
12. **CTRL+H** - Topilgan matnni boshqa matn bilan almashtirish
13. **CTRL+K** - Giperyo' llanma qo' shish
14. **F7** - Imlo xatolarni tekshirish
15. **ESC** - Oxirgi o' zgarish yoki tugallanmagan harakatni bekor qilish
16. **CTRL+Z** - Oxirgi harakatni bekor qilish
17. **CTRL+Y** - Bekor qilingin harakatni qaytarish
18. **CTRL+SHIFT+F** - Slaydning tanlangan ob' ekt xarflar shaklini o' zgartirish
19. **CTRL+SHIFT+P** - Slaydning tanlangan ob' ekt xarflar kattaligini o' zgartirish
20. **CTRL+SHIFT+>** - Slaydning tanlangan ob' ekt xarflar kattaligini bitta qadamga kattalishtirish
21. **CTRL+SHIFT+<** - Slaydning tanlangan ob' ekt xarflar kattaligini bitta qadamga kamaytirish
22. **CTRL+T** - Slaydning tanlangan ob' ekt xarflar tashqi ko' rinishini (Format menyusidagi Shrift

buyrug' i) o' zgartirish.

23. **SHIFT+F3** - Xarflar registrini o' zgartirish

24. **CTRL+B** - Qalin xarflar rejimiga o' tish

25. **CTRL+U** - Tagichiziqli xarflar rejimiga o' tish

26. **CTRL+I** - Yotiq xarflar rejimiga o' tish

27. **CTRL+PROBEL** - Xarflar o' zgartirilgan tashqi ko' rinishini bekor qilish

28. **CTRL+SHIFT+C** - Xarflar tashqi kuo' inishini xotiraga olish

29. **CTRL+SHIFT+V** - Xarflar tashqi ko' rinishini xotiradan chiqarish

30. **CTRL+E** - Abzasni o' rtadan rostlash

31. **CTRL+J** - Abzasni ikala tomondan bo' yicha rostlash

32. **CTRL+L** - Abzasni chap tomon bo' yicha rostlash


33. **CTRL+R** - Abzasni o' ng tomon bo' yicha rostlash

3. Microsoft Power Point dasturi taqdimotni sozlash.

Agar siz tayyor taqdimotning slaydlarini animasiyalashtirmoqchi bo' lsangiz, u xolda kerakli slaydga o' tib  tugmani bosishingiz kerak va uning natijasida ekranda **NASTROYKA ANIMASII** oynasi xosil qilinadi. U quyidagicha bo' ladi:


Bu oynada biz **PORYADOK I VREMYA** qismida animasiyalashtirish tartibini hamda ishga tushish vaqtini va turini (sichqoncha yoki vaqtga ko' ra) ko' rsatamiz, **VIDOIZMENENIE** qismida esa animasiya turini, **VIDOIZMENENIE V DIAGRAMME** qismi yordamida esa diagrammalarni animasiyalashtirish imkoniyatlari ko' rsatilgan, **NASTROYKA MUL'TIMEDIYA** qismi esa slaydni musika bilan jixozlash imkoniyatlarini beradi. Bu oynadagi **PROSMOTR** tugmasi yordamida biz qilingan o' zgarishlarni tayyor xolatini ko' rishimiz mumkin.


Shu bilan birga biz slaydlarni rangli jixozlanishini o' zgartirishimiz mumkin. Buning uchun dastur menyusining **FORMAT** bo' limidagi **SVETOVAYA SXEMA** buyrug' ini tanlaymiz, natijada quyidagi oyna xosil qilinidi:




Ushbu oynada kerakli rangli jixozlanishni tanlaymiz va uni yoki hamma (**PRIMENITЬ KO VSEM**) yoki faqat shu slaydga (**PRIMENITЬ**) tegishli deb tanlashimiz mumkin.

Menyu **FORMAT** ning **FON** buyrug' i yordamida esa slaydlarning orqa rangini o' zgartirishimiz mumkin. Shu menyusining **ShABLONi OFORMLENIYA** buyrug' i yordamida esa slaydlarning tayyor rang va shriftlar jixozlanish xolatlarini tanlashimiz mumkin.






Агар siz taqdimot ichida slaydlarni bir - biri bilan almashish turini o' zgartirmoqchi bo' lsangiz, u xolda **POKAZ SLAYDOV** menyusi ichidagi **SMENA SLAYDOV** buyrug' ini tanlaymiz. Natijada paydo bo' lgan oynada biz slaydlarni almashish effektini, tezligini, vaqtini va tovush bilan jixozlanishini tanlaymiz.




Taqdimotning slaydlarining o'rtasida harakatlanishni osonlashtirish uchun biz xar hil boshqarish tugmalaridan foydalanishimiz mumkin. Buning uchun **POKAZ SLAYDOV** menyusidagi **UPRAVLYAYUSHIY KNOPKI** buyrug' idan foydalanamiz. Ushbu buyruqni tanlaganimizdan keyin bizga quyidagi tugmalar variantlari taqdim etiladi.



Shulardan kerakli tugma turini tanlab sichqoncha yordamida slaydda shu tugmani yaratamiz. Tugma yaratib bo'lganimizdan keyin ekranda **NASTROYKA**

DEYSTVIYA oynasi xosil qilinidi. Bu oynada biz yoki tugmaga sichqoncha bilan bosganimizda yoki sichqoncha bilan tugmaga ko' rsatganimizda harakatni boshlash va qaysi harakatni boshlashni (taqdimot ichida harakatlanish, dasturni ishga tushirish va qaysi tovush bilan uni jixozlash) ko' rsatamiz.

Taqdimot yaratilgandan keyin biz menyuyu **POKAZ SLAYDOV** menyusidagi **NASTROYKA ANIMASII** buyrug' ini tanlaymiz. Bu buyruq oynasi yordamida biz taqdimotni proektor yordamida boshqarish yo' lini (ko' rsatuvchi tomonidan to' liq ekran yoki oyna xolatida, ketma-ket tushuntirilishsiz hamda animasiyalashtirishsiz va slaydlarni almashtirish yo' lini ko' rsatamiz)



Taqdimot tayyor bo' lgandan keyin uni ishga tushirishimiz mumkin. Buning uchun **POKAZ SLAYDOV**

menyusi ichidagi **NACHATb POKAZ** yoki **F5** tugmasini bosamiz.

4. Microsoft Power Point dasturning menyusi.

Power Point taqdimotlar muxarririnig menyusi oynani yuqori qismida joylashgan bo' lib u 8 bo' limdan iborat: Fayl, Pravka, Vid, Vstavka, Format, Servis, Tablisa va Okno. Bu bo' limlar yordamida biz taqdimot, slayd va ularda joylashgan xar hil matn, rasm hamda boshqa istalgan ob' ektlar ustidan xar hil amallarni bajarishimiz mumkin. Endi bu bo' limlar bilan yaqinroq tanishaylik.

Fayl menyu komandalarining mazmuni:

Sozdat... - Yangi, ilgari mavjud bo' limgan taqdimotni yaratish (bo' sh, rangli jixozlangan yoki, tayyor shablondan foydalanib).

Otkryt... - Mavjud bo' limgan (oldin yaratilgan) taqdimotni ko' rish yoki o' zgartirish uchun ochish

Zakryt - Ekranda ochiq bo' limgan taqdimotni berkitish.

Soxranit - Ekranda ochiq bo' limgan taqdimotni saqlash

Soxranit kak... - Ekranda ochiq bo' limgan taqdimotni yangi nom ostida saqlab qo' yish yoki boshqa bir katalogga nusxasini joylashtirish.

Soxranit v formate NTML... - Ekranda ochiq bo' limgan

taqdimotni xotiraga gipertekst ko' rinishida saqlab qo' yish.

Параметры странисы... - Ishchi saxifasini formatlashga oid parametrlardan iborat dialog oynasini xosil qilish.

Предварительныy prosmotor - Bosmaga tayyorlangan taqdimotni saxifaga joylashishini oldindan ko' rish.

Печат - Taqdimot faylni bosmaga chiqarishga oid parametrlardan iborat dialog oynasini xosil qilish.

Отправить - Faylni boshqa kompterga jo' natish

Своystva - Fayl haqida ma' lumotlar saqlash

Pravka menyusi

komandalarining mazmuni:

Отменить изменениya - Ma' lumotlarni o' zgartirishga olib kelgan oxirgi bajarilgan harakatni bekor qilish (orqaga qaytish).

Повторит - Bekor qilingan harkatni qaytarish (oldingi ko' rinishga qaytish)

Вырезат - Tanlab olingan slayd ob' ektning nusxasini xotiraga ko' chirib (qirqib) olish.

Копироват - Tanlab olingan slayd ob' ektning nusxasini xotiraga olish

Вставит - Xotirada joylashgan slayd ob' ektning chiqarib kursor turgan joyiga qo' yish.

Специальная вставка - Xotirada joylashgan slayd ob' ektning kursor turgan joyiga xar hil ko' rinishda

chiqarish.

Ochistit - Slaydning tanlagan ob' ekt ichini yoki yozuvlarni tashqi ko' rinishini tozalash.

Videlit vsyo - Butun slaydda joylashgan ob' ektlarni tanlash

Dublirovat - Tanlangan slayd ob' ektining nusxasini yaratish

Udalit slayd - Tanlangan slayd ob' ektini o' chirish

Nayti... - Butun slaydda so' z yoki so' zlar ketma ketligini qidirib topish komandasi.

Zamenit... - Butun slaydda so' z yoki so' zlar ketma ketligini qidirib topib boshqasiga almashtirish komandasi.

Vid menyusi komandalarining mazmuni:

Obichniy - Taqdimotning oddiy ko' rinishiga o' tish

Sortirovʻik slaydov - Slaydlar ro' yhati ko' rinishiga o' tish

Stranisi zametok - Slaydlar kichiklashtirilgan xolatiga o' tish

Pokaz slaydov - Slaydar taqdimotini ko' rish

Obrazes - Taqdimotni tayyor shablon ko' rinishiga o' tish

Cherno beliy – Oq - qora xolatiga o' tish

Miniatyura - Kichiklashtirilgan xolatga o' tish

Paneli instrumentov - Ekranda ixtiyoriy yordamchi tugmalar (uskunalar paneli) satrini xosil qilish va Nastroyka tugmasi orqali bu panellarga yangi tugmalar joylashtirishi mumkin.

Lineyka – Chizg' ichlarni ekranda ko' rinishi yoki ko' rinmasligini ta' minlaydi.

Napravlyayushie - Slaydning o' rtasini ko' rsatish

Kolontituli - Yuqori yoki pastki kolontitullarni yaratish, ko' rish va ularni taxrirlash

Primechanie Slaydning tanlangan elementiga izox qo' shish

Masshtab Slaydlarni ko' rinishi foizini o' zgartirish
Vstavka menyusi
komandalarining mazmuni:

Sozdat slayd - Yangi bo' sh slayd yaratish

Dublirovat slayd - Ekranda ko' rinib turgan slayd nusxasini yaratish

Nomera slayda... - Slaydga nomerini qo' shish

Data i vremya... - Slaydga avtomatik ravishda bugungi kun va vaqti haqida ma' lumotni qo' shish

Simvol... - Slaydga xar hil belgilarni qo' shish
(masalan: © ® § ¼ ± ³ ² o' €)

Primechaniya - Slaydning belgilangan element mazmuni xaqida izoxlarni yaratish (izox sichqonchani shu elementga ko' rsatganingizda ekranda xosil

bo' ladi)

Slaydi iz faylov... - Tashqi joylashgan boshqa fayldan slayd qo' shish

Slaydi iz strukturi... - Tayyor strukturadan slayd qo' shish

Risunok - Bu komanda yordamida slaydga rasmlar va xar hil grafik ob' ektlar qo' yiladi. Ushbu guruxda:

Kartinki - tayyor rasmlar koleksiyasidan, **Iz fayla** - kompyuterda saqlanuvchi rasmni, **Avtofiguri** - tayyor grafik shakllar, **Ob' ekt Word Art** - grafik jixozlangan matn va xokazo...

Nadpis - Matnga ustki yozuv qo' shish. Ustki yozuv slaydda emas balki aloxida qatlamda yaratiladi va uni varraq bo' ylab siljitish mumkin.

Film i zvuk - Slaydga video yoki audio ob' ektni qo' shish

Tablisa - Slaydga jadval qo' shish

Ob' ekt - Bu komanda umumlashgan komanda bo' lib, u aloxida fayllarda saqlanuvchi Risunok, Karta va boshqa bir qancha murakkab ob' ektlarni xujjatiga qo' yishga xizmat qiladi.

Format menyusi komandalarining mazmuni:

Shrift - Matnga tegishli xususiyatlarni o' zgartirish

Spisok - Matnni ro' yhat xolatiga o' tkazish va ro' yhat ko' rinishini ko' rish va o' zgartirish

Viravnivanie - Slayd chegaralari bo' yicha ob' ektlarni joylashtirish

Intervali - Slaydda ob' ektlar o' rtasidagi masofani o' zgartirish

Registr - Slaydning ichidagi ob' ektning xarflar registirini o' zgartirish

Zamena shriftov - Ob' ekt xarflar shaklini boshqasiga o' zgartirish

Razmetka slayda - Slayd turini o' zgartirish

Svetovaya sxema - Slayd rangli jixozlanishini o' zgartirish

Fon - Slayd orqa rangini o' zgartirish.

Primenit shablon oformleniya - Tayyor shablon rangli jixozlanishiga o' tkazish.

Sveta i linii - Slaydning tanlangan elementning rang va chiziqlar xususiyatlarini o' zgartirish.

Prototip - Taqdimot elementlarini tayyor xolatlarni ko' rish yoki o' zgartirish.

Servis menyusi komandalarining mazmuni:

Orfografiya... - Taqdimotning imlo xatolarini tekshirish tizimini ishga tushiradi.

Yazik - Xatolarni tekshirish tilini o' zgartirish yoki tanlangan so' zga sinonim topish.

Sravnenie i sliyanie prezentasiy - Ikkita taqdimotni bir - biriga qo' shish

Sovmestnaya rabota - Bitta taqdimotni boshqa kompyuter bilan birga yaratish

Makros... - Mavjud makroslar bilan ishlash yoki yangilarini yaratish.

Shabloni nadstroyki... - Xujjat parametrlarini o' zgartirish

Nastroyka... - Yordamchi tugmalar panellarini, menyu bo' limlarini ekranda ko' rinishini yoki tartibini sozlash, klaviaturadan bajariladigan amallarni o' zgartirish.

Parametri... - Dasturning asosiy parametrlarini o' zgartirish va uning ishlash xolatlarini sozlash.

Pokaz slaydov komandalarining mazmuni:

Nachat pokaz - Slaydlar taqdimotini boshlash

Nastroyka vremeni - Slaydlardagi ob' ektlarni paydo bo' lish vaqtini sozlash

Zvukozapis - Slaydga tovush tayyorlash

Nastroyka prezentasii - Taqdimotni ishga tushish va ishlash xolatlarini sozlash

Upravlyayushie knopki - Boshqarish tugmalarini qo' shish

Nastroyka deystviya - Ob' ektga mos harakatni tanlash

Vstroennaya animasiya - Tayyor

animasiyalashtirishdan foydalanish

Nastroyka animasii - Taqdimotni ichidagi slayd

ob' ektlarning animasiya va audio imkoniyatlarini
sozlash va ular tartibini ko' rsatish

Prosmotr animasii - Slaydning animasiyasini ko' rish

Smena slaydov - Slaydlarni bir - biri bilan almashish
xolatini tanlash

Skrit slayd - Slaydni ko' rinmas qilish

Proizvolniy pokaz - Slaydni ixtiyoriy tartibda
ko' rsatish

Okno menyusi komandalarining mazmuni:

Novoe - Taqdimot faylni ikkita oynada ko' rsatilishini
ta' minlash.

Uporyadochit vse - Hamma ochiq taqdimot fayllar
oynalarini ekranda yonma-yon ko' rinishini taminlash.

Kaskadom - Hamma ochiq taqdimot fayllar oynalarini
ekranda ustma-ust ko' rinishini ta' minlash.

Sleduyushaya oblast - Keyingi soxa yoki slayd
ob' ektiga o' tish.

Yuqoridagi buyruq' larni ko' p qismini biz yordamchi
yoki tezkor tugmalar yordamida bajarishimiz mumkin.
Shuning uchun vaqtni tejash maqsadida ko' p

kompyuter foydalanuvchilari menyu xizmatlaridan kam foydalanadilar.

Sinov savollari:

1. Umumiy tushunchalar.
2. Microsoft Power Point tezkor tugmalari
3. Taqdimotni sozlash
4. Microsoft Power Point dasturning menyusi

ADABIYOTLAR

1. M.N.Petrov, V.P.Molochkov Kompyuternaya grafika. Uchebnik – SPb: Piter,2003 – 736s.
2. Konspekt leksiy po dissipline «Primenenie sredstv kompyuternoy grafiki v sistemax avtomatizirovannogo proektirovaniya » dlya podgotovki bakalavrov. 2005
3. Virtualnaya rabota v 3D Studio MAX3.0, M.: - Poznovatelnaya kniga.
4. Strazniskas M. Photoshop 5.5 dlya podgotovki Web-grafiki. –S.-Peteburg: Sybex, 2000 – 473s.

5. Simonovich S.V. i dr. Spetsialnaya informatika: Uchebnoe posobie. – M.: AST – PRESS: Infokom-Press, 2002. – 480s.
6. Effektivnaya rabota s CorelDraw 10. , SPb.:Piter, Beyn, Stiv,2002
7. Karimova D. Computer science. Information Technologies: Part 2-1.,2005
8. Spravochnoy rukovodstva programm.
9. M.Marov, 3D Studio MAX 2.5: spravochnik – SPb: «Piter», 1999. – 672 s.

Internet manba' lari:

<http://ziyonet.o'z>

<http://rusgraf.ru>

<http://www.museum.ru/museum/cga/apps/review/Review.html>

<http://do.rksi.ru/library/courses/ipsvs/ipsvs2.dbk>

<http://edu.nstu.ru>

<http://graphics.sc.msu.su/courses/cg02b>